

ULUG'BEK HAMDAMNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Ibrohimjonova Xumoraxon Islomiddin qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti, filologiya va tillarni o'qitish:
o'zbek tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi
ibrohimonovahumoraxon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda yozuvchi Ulug'bek Hamdamning hayoti, asarlari va ulardagi obrazlar, obrazlarning realistik va simbolistik ma'no qatlamlari, ramzlardan foydalanish mahorati, har bir asarga o'z individual uslubi bilan yondashishi, ijodidagi o'tkir psixologizm va falsafiylikka boy ekanligi, obrazlar ruhiyatidagi qarashlariga ko'ra tahlil qilinadi. Shu bilan birga, insonlar taqdiri, ularning boshdan kechirgan sinovlari, ushbu og'ir kunlarda yaqin insonlarning ishonchi, qo'llab-quvvatlashi, maqsadlar tomon intilishdagi qiyinchiliklar, shuningdek, ikki dunyo motivi ramzlar yordamida ochib berilishi aks etgan.

Kalit so'zlar: psixologiya, problema, badiiy obraz, realistik obraz, simbolistik obrazlar, syujet, detal, individual uslub, badiiy mahorat, falsafiylik.

Annotation . In this research, the writer Ulugbek Hamdam's life, works and images in them, realistic and symbolic meaning layers of images, skill in using symbols, approach to each work with his own individual style, rich in sharp psychologism and philosophy in his work, views on the spirit of images are analyzed. At the same time, the fate of people, their trials, the trust and support of close people in these difficult days, the difficulties in striving towards goals, and the motifs of two worlds are revealed with the help of symbols.

Key words: psychology, problem, artistic image, realistic image, symbolic images, plot, detail, individual style, artistic skill, philosophy

Аннотация. В данном исследовании анализируется жизнь, творчество и образы писателя Улугбека Хамдама, реалистические и символические смысловые пласты образов, мастерство использования символов, индивидуальный подход к каждому произведению, острый психологизм и философская глубина его творчества, а также взгляды на психику, отраженную в образах. Одновременно затрагиваются судьбы людей, пережитые ими испытания, доверие и поддержка близких в эти трудные дни, сложности в стремлении к целям, а также раскрытие мотива двух миров с помощью символов.

Ключевые слова: психология, проблема, художественный образ, реалистический образ, символические образы, сюжет, деталь, индивидуальный стиль, художественное мастерство, философия.

Kirish. XXI asr o'zbek nasrida mustaqillikdan keying yangi davr, global texnologik taraqqiyot va zamonaviy insonning ruhiy kechinmalari asosiy mavzuga aylandi. Asarlarda texnogen davr psixologiyasi, insoniyat fojeasi (robotlashgan dunyoda inson ruhiyati) va unga yechimlar, o'zbek milliy an'analar, tarixiy ildizlar bilan zamonaviy hayotni uyg'unlashtirish, insonlarni tafakkur qilishga undash kabi dolzarb muammolar qalamga olinadi. Bugungi kunda mana shunday mavzularni tilga oluvchi yozuvchilar ko'plab topiladi. Jumladan, Ulug'bek Hamdam, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Zulfiya Qurolboy qizi. Ulardan biri 1968-yilning 24-aprelda Andijon viloyati

Marhamat tumanida tugʻilgan Ulugʻbek Hamdam oʻzining chuqur, sermazmun roman va hikoyalari bilan xalq ogʻziga tushgan yozuvchi hisoblanadi. Uning “Bir piyola suv”, “Yaxshiyam sen borsan!..”, “Tosh”, “Soʻz” hikoyalari, “Naʼmatak” mini romani, “Isyon va itoat” romani kabi asarlarida oʻtkir falsafiylik mujassamlashgan. U har bir ijodida oʻziga xos individual uslub orqali obraz yaratadi.

Asosiy qism. Badiiy obraz borliqning sanʼatkor koʻzi bilan koʻrilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib hissiy idrok etish mumkin boʻlgan shaklida ifodalangan aksidir. Realizm bu voqelikni, mavjud borliqni badiiy adabiyot va sanʼatning ifoda vositalari orqali oʻziga oʻxshash shakllarda haqqoniy aks ettirishdir. Simvolizm esa kundalik maishat domidan qutulish va dunyoning ideal mohiyatini anglash uchun obrazdan koʻra samaraliroq vositadir.¹ Yozuvchi boʻlsa badiiy obraz yaratishda realistik va simvolistik metodlardan keng foydalanadi.

Bugungi kunda koʻplab yozuvchilar badiiy obraz yaratishda realizm va simvolizmga murojaat qiladi. Zamonaviy adabiyotshunos Ulugʻbek Hamdam shunday yozuvchilar sirasiga kiradi. Mashhur yozuvchi serqirra ijodi bilan kitobxonlarga tanilgan. U yozgan har bir asarida oʻquvchini chuqur oʻylantiradigan yuksak saviyali gʻoya beradi. Ulugʻbek Hamdamning asarlarini shunchaki oʻqish kerak emas, undagi har bir gapni, obrazni, keltirilgan detalni nima maqsadda asarga olib kirganini anglash, mulohaza yuritish kerak. Bularni tushunish uchun esa ularni magʻzini chaqishga toʻgʻri keladi. Shu sababli kitobxondan ziyraklik, keng dunyoqarash, badiiy tafakkur talab etiladi. Yozuvchining obraz yaratish mahoratini “Yaxshiyam sen borsan!..” hikoyasi orqali tahlil qilamiz.

“Yaxshiyam sen borsan!..” hikoyasida Yusuf va Zulayho obrazlari, bekat, restoran, musiqa, buyurtma, bozor, yoʻl, eshik, qahvaxona, moʻysafid, qabriston, roʻmolcha kabi ramziy detallar kiritilgan. Yuqoridagilarning barchasini oʻz maʼnosi, bajaradigan ramziy vazifasi bor. Hikoyaning boshlanishi yoshlarning dolzarb masalasi – telefon muammosi keltirilgan. Shu muammo orqali yozuvchi kitobxonni oʻziga jalb qiladi. Chunki hikoyani oʻqir ekanmiz, “voy, huddi oʻzim-ku”,- deya oʻylashimizga sabab boʻladi. Bu asarning realistik maʼno qatlamidir. Hikoyaning qolgan barcha qismi simvollaridan iborat. Jumladan, bekat bu tugʻulishgacha boʻlgan jarayon, restoran esa tugʻilish demakdir. Asarni yozuvchi uch qismga boʻlganini shundan koʻrsak ham boʻladi. Ziyraklik bilan oʻqigan kitobxon restorandagi “menyu” inson tugʻilishidan avval uning taqdiri ekanligini angelaydi. Shuning uchun ham obrazlar menyudan hech narsa buyurtma qilmaydi. Balki issiq ichimlik aytib, inson taqdiriga bitilgan har narsaga rozi boʻladi, undan faqat issiqlik, iliq voqealar boʻlishiga umid bogʻlaydi. Musiqa ona

¹ D. Quronov. Adabiyotshunoslik lugʻati. – Toshkent: Akademnashr nashriyoti. 2018. B.440-452

allasi misoli qahramonlarga orom bag‘ishlaydi. Yo‘l inson umri bo‘lsa, bozor – dunyo ramzi. Dunyo o‘zining jilvasi bilan insonlarni o‘ziga rom etadi, aldaydi. Kishi bozorga kirganda ham undagi g‘aroyibotlarga havasla aldanib qoladi huddi dunyoga aldanib qolganday. Lekin yozuvchi hikoyada shunday aldanib qolmaslikka da‘vat etyapti. Chunki kirar eshikning chiqishi ham borligi, u har doim biz istaganimizdek tugamasligi mumkin, ya‘ni o‘libgina bu dunyodan – bozordan qabriston orqali chiqishimiz mumkin. Qahvaxona esa masjid timsoli. Sababi adashgan inson to‘g‘ri yo‘lni topish uchun, gunohlarga kafforat izlab masjidga kiradi, u yerda masalalar eshitib, maslahatlardan o‘ziga xulosa chiqaradi. Shunday to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi inson esa mo‘ysafid choldir. U xato qilganlarga, adashganlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi. Nima uchun hikoyaga Yusuf va Zulayho deb nom bermagan aynan “Yaxshiyam sen borsan!..” deb nomlangan? Sababi Ulug‘bek Hamdam asarlarida ramziy belgilar ko‘p bo‘lishi asar nomiga ham ta‘sir ko‘rsatmay qolmagan. Buni izohlaydigan bo‘lsak, Zulayho va Yusuf chiqish eshigini qidirar ekan yo‘lda ularni to‘xtatib qoluvchi to‘siqlarga uchraydi. Zulayho zebziyatlarga ko‘zi tushib, ulardan nari ketgisi kelmaydi. Bu ayollarni zargarlik buyumlari ko‘proq e‘tiborini tortishini anglatadi. Biroq Yusuf Zulayhoni dunyoning bunday makrihiylalaridan olib ketadi. Ko‘p o‘tmay Yusufni ham bir sinov qarshi oladi. Bu erkaklar xohlaydigan mansab, lavozim edi. Shunday bo‘lishiga qaramay, qahramonlarning bir-biriga bo‘lgan sevgisi ularni bu sinovlardan qutqarib qoladi. Shunday ekan yozuvchi hikoya sarlavhasi orqali bizga hayotimizda to‘g‘ri insonni tanlashimiz kerakligini o‘rgatadi. Yaxshi inson sizni har qanday vaziyatda ham yolg‘iz qoldirib ketmaydi, balki o‘ziga jarohat yetkazib bo‘lsa ham, qutqarib qoladi. O‘sha jarohatni bog‘lagan ro‘molcha ham ezgulik va go‘zallikning timsoli bo‘lib, uni bozordan sotib ololmaslikni o‘quvchiga uqtiradi. Shunda savol tug‘iladi nima uchun Zulayho yuzini jarohatlaydi va shu jarohat bilan ham Yusuf uni sevishda davom etadi nega bu jarayon manzilga oz qolganda yuz beryapti? Buning sababi kishi chin dildan yoqtirsa, yoqtirgan insonining tashqi ko‘rinishi ahamiyatsiz u o‘zi bilan birga bo‘lsa bo‘ldi. Yana bu jarayon inson ming chiroyli bo‘lmasin u manzil oxirida, ya‘ni umrning oxirida - qariganda chiroyi yo‘qolishini anglatmoqda. Voqeaning yana bir muhim tomoniga e‘tiborimizni qaratsak, bunda har bir sinovdan mardonavor o‘tganlarida yo‘lni qaytadan boshlaydilar. Bu umr so‘qmoqlarida xato qilsang, uni to‘g‘irlasang ham, yana shu sinov bilan sinalasan, zero bu xatoni qayta qilmasliging uchun. Va nihoyat qahramonlar chiqish eshigiga yetib kelishadi ne ko‘z bilan ko‘rsinki, bu qabristonga kirish edi. Qabriston har bir ochilgan eshikning yopilishi hamda foniy dunyodan boqiy dunyoga kirish eshigi hamdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, “Yaxshiyam sen borsan!..” hikoyasida Ulug‘bek Hamdam qo‘llagan reallikdan simvolizmga ko‘chgan obrazlar sistemasi orqali

kitobxonlarga hayotning asl mohiyati nima ekanini, unda foniy dunyoga aldanib, boqiy dunyoni unutib qo‘ymaslikni o‘rgatadi. Shuningdek, bu hikoya hayotda to‘g‘ri insonni tanlash orqali umrni mazmunli o‘tishini ko‘rsatadi. Qolaversa, ezgulik va go‘zallikning hech qachon bozorda sotilmasligini, uni dunyo matohlaridan izlamaslikni, ilohiy muhabbatni qalbida mahkam tutganlar qismati jannatda bo‘lish haqida bayon qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslar. 2018, T.: Navoiy universiteti 486-b
2. Ulug‘bek Hamdam. To‘lin oy qissasi. Hikoyalar. 2017, T.: O‘zbekiston